

**DEHQONCHILIKNING OKS SIVILIZATSIYASIDA DINIY
QARASHLARNING VUJUDGA KELISHIDA TA'SIRI***THE INFLUENCE OF AGRICULTURE ON THE EMERGENCE OF
RELIGIOUS BELIEFS IN OXUS CIVILIZATION***Tajiboyeva Ruxsora Ibadulla qizi**

O'zbekiston Milliy Universiteti, Tarix fakulteti magistri

Email: tajiboyevaruxsora@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada miloddan avvalgi III–II ming yillikda O'rta Osiyo hududida rivojlangan Oks (BMAK — Baqtriya–Marg'iyona Arxeologik Kompleksi) sivilizatsiyasida dehqonchilik faoliyatining diniy qarashlar shakllanishidagi ta'siri tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Tadqiqot arxeologik ma'lumotlar, ikonografik topilmalar va qiyosiy tahlil metodlari asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, dehqonchilik madaniyati: unumdorlik kultlari, kosmologik tasavvurlar va mavsumiy marosimlar tizimining asosini tashkil etgan. Maqolada BMAK diniy tizimining monoteistik dinlarga, xususan, zardushtiylikka zamin yaratganligi ilmiy dalillar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Oks sivilizatsiyasi, BMAK, dehqonchilik kulti, unumdorlik kulti, tarixshunoslik, O'rta Osiyo arxeologiyasi, zardushtiylik, diniy evolyutsiya.

ABSTRACT

This article examines the influence of agricultural practices on the formation of religious beliefs in the Oxus (BMAC — Bactria–Margiana Archaeological Complex) civilization, which flourished in Central Asia during the third and second millennia BCE. The research is grounded in archaeological evidence, iconographic analysis, and comparative historical methods. The findings demonstrate that agricultural culture formed the foundation for fertility cults, cosmological conceptions, and seasonal ritual systems in the BMAC. The article substantiates, through scientific evidence, that the BMAC religious system laid the groundwork for monotheistic religions, particularly Zoroastrianism.

Keywords: Oxus civilization, BMAC, agricultural cult, fertility religions, historiography, Central Asian archaeology, Zoroastrianism, religious evolution.



I. KIRISH

Insoniyat tarixida neolit inqilobi deb nom olgan dehqonchilikning paydo bo'lishi nafaqat odamlarning moddiy turmush tarzini, balki ruhiy va ma'naviy dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirgan. Mil. avv. X–VIII ming yilliklarda Yaqin Sharqdan boshlangan neolit inqilobi keyinchalik ko'plab hududlarga tarqalgan va dehqonchilik vujudga kelishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa O'rta Osiyoga ham yetib kelib, bu hududda o'ziga xos sivilizatsiya shaklining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu sivilizatsiya mil. avv. III–II ming yilliklarda Amudaryo vodiysi va unga tutash hududlarda mavjud bo'lib Oks sivilizatsiyasi nomini olgan, shuningdek ilmiy adabiyotlarda BMAK (Baqtriya–Marg'iyona arxeologik kompleksi) nomi bilan ham mashhurdir.

Ushbu sivilizatsiya Viktor Sarianidi boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyalar orqali XX asrning 70-yillaridan boshlab Gonurtepa, To'g'aloq, Kelleli va Dashtli kabi yodgorliklar asosida kashf etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu madaniyatda arxitektura, metallurgiya va savdo-sotiq rivojlanishidan tashqari, dinning yuksak darajada rivojlanganligini ko'rish mumkin, ya'ni Oks sivilizatsiyasining juda ko'p manzilgohlaridan ibodatxonalar topilgan. Ular orasida eng mashhuri va yaxshi o'rganilgani Jarqo'ton manzilgohidan topilgan ibodatxona hisoblanadi. Biroq aynan shu diniy tizimning ildizlari va uning dehqonchilik bilan bog'liqligi tarixshunoslikda hali to'liq o'rganilmagan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, ko'plab tadqiqotchilar Oks sivilizatsiyasini zardushtiylikning bevosita manbasi sifatida ko'rsa-da, bu aloqadorlikning asosi dehqonchilik sifatida alohida tahlil qilinmagan. Maqolada ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida kompleks tarixiy-arxeologik yondashuv qo'llanilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Oks sivilizatsiyasida dehqonchilik faoliyatining diniy qarashlar — unumdorlik kultlari, kosmologik tasavvurlar va mavsumiy marosimlar — vujudga kelishidagi o'rnini tarixshunoslik nuqtayi nazaridan aniqlash va ilmiy asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

1. BMAK madaniyatida dehqonchilik rivojlanishining arxeologik dalillarini tahlil qilish;
2. Ikonografik topilmalar orqali diniy tasavvurlarning agrar kontekstini o'rganish;
3. Oks diniy tizimining keyingi monoteistik dinlarga ta'sirini baholash;
4. Mavjud tarixshunoslik maktablarining bu masaladagi fikrlarini qiyosiy tahlil qilish.

II. MATERIAL VA METODLAR

2.1. Manbalar bazasi



Tadqiqot uchta asosiy toifadagi manbalarga tayanadi. Birinchisi — arxeologik ma'lumotlar: V. Sarianidining Gonurtepa (1972–2007) va P. Kohl rahbarligidagi Kelleli (1984–1990) ekspeditsiyalari materiallari. Bu qazishmalar natijasida 4500 dan ortiq artefakt — sopol idishlar, muhr-tamg'alar, bronza figuralar va marosim buyumlari topilgan. Ikkinchisi — ikonografik tahlil: BMAK muhrlarida tasvirlangan ramzlar, hayvon va o'simlik motivlari, odamsimon iloh figuralari. Uchinchisi — qiyosiy manbalar: Hindiston sivilizatsiyasi (Moxenjadaro), Mesopotamiya shumer yozuvlari va Avesto matnlari bilan qiyoslash.

2.2. Metodologiya

Maqolada quyidagi ilmiy metodlar qo'llanilgan:

- Retrospektiv tahlil metodi: diniy amaliyotlarning kechagi shakllaridan avvalgi shakllariga qarab borish;
- Qiyosiy-tarixiy metod: BMAK ma'lumotlarini qo'shni sivilizatsiyalar bilan solishtirish;
- Strukturaviy tahlil: arxeologik komplekslarda ibodatxonalar va ombor xonalarining joylashuvini funksional tahlil qilish;
- Ikonografik dekodlash: muhr va idishlardagi tasvirlarning ramziy ma'nosini aniqlash.

Tadqiqotda tarixshunoslik tahlili usuli ham markaziy o'rinni egallaydi: Sarianididan tortib zamonaviy fransuz va amerikalik tadqiqotchilargacha bo'lgan ilmiy maktablarning yondashuvlari tanqidiy baholangan.

2.3. Xronologik va geografik doira

Tadqiqot mil. avv. 2300–1700-yillar davri bilan chegaralangan — bu Oks sivilizatsiyasining klassik davri hisoblanadi. Geografik jihatdan Turkmaniston (Gonurtepa, To'g'aloq), Afg'oniston (Dashtli, Shortughai) va O'zbekiston (Sopollitepa, Jarqo'ton) hududlarini qamrab oladi.

III. NATIJALAR

3.1. Dehqonchilik infratuzilmasi va uning diniy maqomi

Arxeologik tadqiqotlar Gonurtepa markaziy kompleksida katta omborxonalar ibodatxona binolari bilan yonma-yon, ba'zan esa ularning ichida joylashganligini ko'rsatadi. Bu holat tasodifiy emas — donni muqaddas deb hisoblagan va uni ilohiy himoya ostida saqlagan jamiyatning dalili deb hisoblasa bo'ladi. Sarianidi (1994) tomonidan topilgan «Gonurtepa ibodatxonasi»ning markaziy zalida don saqlash xonalari va ekin urug'lari qoldiqlari aniqlangan, shuningdek spool quvurlarda orqali suv ham kirgan. Sarianidining fikriga ko'ra bu suv manbayi tashrif buyuruvchilar uchun diniy poklanish vazifasini o'tagan. Bu topilma dehqonchilik mahsulotlari bilan diniy



marosimlar o'rtasidagi bevosita aloqaga ishora qiladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, xususan P.Kohl Kelleli-3 va Kelleli-4 yodgorliklarida aniqlangan to'g'riburchak shakldagi inshootlar agrar kult bilan bog'liq marosim majmualari sifatida talqin qilinadi. Ushbu inshootlardan topilgan o'rim-terim qurollari, don tegirmonlari hamda o'choqlar dehqonchilik bilan bog'liq faoliyatning mavjudligini ko'rsatadi, biroq ularning to'liq diniy xarakterga ega ekanligi masalasi ilmiy adabiyotlarda bahsli hisoblanadi. Mazkur inshootlarning agrar kult bilan bog'liq deb hisoblashiga sabablardan biri uning ichki tuzilishi — bir nechta xonalardan tashkil topganligi, markaziy va yon xonalar tizimining mavjudligi, shuningdek, ayrim xonalarda aniqlangan o'choq va platformalar — ularning oddiy turar-joy yoki xo'jalik binolaridan farqli, nisbatan murakkab funksional vazifaga ega degan qarash vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, ayrim o'choqlarning maxsus shaklda qurilgani va ularning atrofida ma'lum faoliyat izlarining aniqlanishi bu joylarda maishiy emas, balki marosimiy amaliyotlar ham amalga oshirilgan bo'lishi mumkinligini taxmin qilishga asos beradi. F.Hiebert, S.Lamberg-Karlovsky bu inshootning to'g'ridan to'g'ri diniy amaliyot bilan bog'liq emas, balki ko'p funksiyali deb fikrlaydi.

3.2. Unumdorlik kulti: figuralar va muhrlar tahlili

BMAK muhrlarining 60% dan ortig'ida agrar motivlar — dala manzaralari, ekinlar, chorva hayvonlari va ularning turli kombinatsiyalari tasvirlangan. Bu holat BMAK jamiyatida dehqonchilik va chorvachilikning nafaqat iqtisodiy, balki ramziy va mafkuraviy ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Ushbu tasvirlar ichida alohida e'tiborni tortadigan obrazlardan biri — ilmiy adabiyotlarda shartli ravishda "Ilohiy ona" yoki "unumdorlik ma'budasi" sifatida talqin qilinadigan ayol figuralari hisoblanadi. «Ilohiy ona» timsoli katta qorinli, to'la gavdali, qo'llarida o'simlik yoki boshqoq tutgan ayol sifatida tasvirlanadi. Sarianidi ushbu ikonografiyani hosildorlik, unumdorlik, va tabiatning qayta tiklanish sikllari bilan bog'liq diniy tasavvurlar ifodasi sifatida talqin qiladilar. Bu tasvirlar unumdorlik kulti agrar jamiyatning asosiy diniy konsepsiyasining ikonografik ifodasidir.

BMAK hududidagi To'g'aloq-21 yodgorligidan topilgan bronza haykalcha (miloddan avvalgi taxminan II mingyillik boshlariga oid) mazkur masalada alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Ushbu figurada bosh qismi boshqoqqa o'xshash elementlar bilan bezatilgan bo'lib, bu detal ko'pincha hosildorlik va agrar kult bilan bog'lanadi. V. Sarianidi ushbu turdagi topilmalarni Marg'iyona hududida shakllangan diniy tasavvurlar, xususan, hosildorlik va muqaddas o'simliklarga sig'inish bilan izohlaydi. Mazkur topilmalarni kengroq mintaqaviy kontekstda ko'rib chiqish ham muhimdir. Tadqiqotchilardan biri G.Possehl Hind vodiysi sivilizatsiyasi materiallarini tahlil qilar ekan, ayrim



insonsimon tasvirlar va o‘simlik bilan bog‘liq ramzlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarga e‘tibor qaratadi. U BMAK va Hind vodiysi o‘rtasidagi madaniy aloqalar ehtimolini inkor etmagan holda, har ikkala hududda ham agrar unumdorlik g‘oyasi muhim o‘rin tutganligini qayd etadi. Biroq Possehl ushbu o‘xshashliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yagona diniy tizim mavjudligi bilan emas, balki o‘xshash xo‘jalik shakliga ega bo‘lgan jamiyatlarda shakllangan umumiy ramziy tasavvurlar bilan izohlashni ma‘qul ko‘radi. Shunday qilib, BMAK muhrlari va haykalchalari ikonografiyasi dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan jamiyatning diniy-dunyoqarash tizimida unumdorlik g‘oyasi muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu tasvirlarni bevosita yagona “agrar kult” yoki aniq bir ma‘buda bilan bog‘lash masalasi ilmiy adabiyotlarda bahsli bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda ular ko‘proq umumiy shakllangan ramziy tizimning bir qismi, ya‘ni iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy tuzilma va diniy tasavvurlar o‘zaro uyg‘unlashgan kompleks fenomen sifatida talqin qilinadi.

3.3. Mavsumiy marosimlar va kosmologik tasavvurlar

BMAK binolari astronomik yo‘naltirilganligi tadqiqotchilar diqqatini tortgan. Gonurtepaning «Qo‘sh ibodatxonasi» bahor tengkunligida quyosh nurini markaziy zanga to‘g‘ri tushiradigan tarzda qurilgan (Salvatori & Tosi, 2008). Bu holat agrar sikl qish uyqusi va bahor uyg‘onishining diniy marosimlar kalendariga aylanganligidan dalolat beradi.

Topilgan sopol idishlardagi spiral va to‘lqin naqshlari suv va hosildorlik ramzlari sifatida talqin qilingan. Qish mavsumidan keyin daryolarning toshishi, qor suvlari va ekinlarning ko‘karib chiqishi — bu tabiat sikllari BMAK aholisi uchun ilohiy kuch namoyon bo‘lishining ko‘rinishlari edi. Shu tariqa vaqt o‘tishi bilan agrar sikl kosmologik siklga aylanib bordi.

3.4. Haoma marosimi va dehqonchilik bilan bog‘liqligi

Sarianidining eng muhim kashfiyotlaridan biri Gonurtepadagi «Oq xona» kompleksida efedra (haoma) va mak o‘simliklarining qoldiqlari topilganidir. Avesto va Rigvedada tilga olingan haoma marosimi ehtimol shu hududda — agrar jamiyat doirasida — shakllanib, keyinchalik zardushtiylik va veda dinlarga o‘tgan (Sarianidi, 2002). Bu topilma dehqonchilik bilan bog‘liq o‘simliklar madaniyatining bevosita rituallashuv jarayonini ko‘rsatadi.

IV. MUHOKAMA

4.1. Tarixshunoslik maktablari tahlili

Oks sivilizatsiyasi diniy tizimi haqida ilmiy adabiyotda bir necha yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuv — Sarianidi maktabi (rus va ukrainalik tadqiqotchilar) BMAKni zardushtiylikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri manbai sifatida ko‘radi



va dehqonchilikning diniy funksiyasini markazlashtiradi. Ikkinchi yondashuv — Kohl va Lamberg-Karlovsky (amerikalik maktab) esa BMAK diniy tizimini ko‘proq Hindiston va Mesopotamiya bilan umumiy sivilizatsion mintaqa doirasida ko‘rib, agrar kulturning parallel rivojlanishini ta’kidlaydi.

Uchinchi yondashuv — fransuz tadqiqotchilari Lyonnet va Dubova — eng yaqin arxeologik ma’lumotlarga tayangan holda, BMAK diniy tizimini dehqonchilikdan ko‘ra ko‘proq o‘troq chorvadorlik bilan bog‘laydi. Ushbu maqolada qo‘llangan kompleks tahlil ko‘rsatdiki, bu fikrlar bir-birini inkor etmaydi — balki dehqonchilik va chorvachilik birgalikda ikki tomonlama agrar diniy tasavvur tizimini yaratgan.

4.2. Qiyosiy tahlil: Shumer va BMAK o‘xshashliklari

Mesopotamiyadagi Shumer sivilizatsiyasida Enlil (havo va g‘alla xudosi) va Inanna (unumdorlik ma’budasi) kulturni dehqonchilik asosida shakllanganligini manbalar tasdiqlaydi. Xuddi shu parallel BMAK uchun ham to‘g‘ri keladi — biroq BMAK da bu jarayon Shumerga nisbatan mustaqil, lekin bir vaqtda ro‘y bergan. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, agrar sivilizatsiyalar alohida rivojlansada, deyarli bir xil diniy tuzilmalarni yaratishga moyil — bu esa dehqonchilikning diniy ong shakllanishidagi universal rolini tasdiqlaydi.

4.3. Muammo va cheklovlar

Tadqiqotning asosiy cheklovi — BMAK yozuv tizimining hozircha o‘qilmaganligidir. Topilgan muhr-tamg‘alardagi belgilar protopiktografik alifbo bo‘lishi ehtimoli bor, lekin hali ularning siri ochilmagan. Bu esa diniy matnlar, marosim qo‘llanmalari yoki xudo nomlari haqidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumotlardan mahrum qilmoqda. Shu boisdan barcha xulosalar arxeologik va ikonografik ma’lumotlarga asoslanib, qiyosiy tahlil usuli asosida yozilgan.

V. XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Oks sivilizatsiyasida dehqonchilik nafaqat iqtisodiy, balki diniy tizimning asosi vazifasini bajargan. Ibodatxonalar va omborxonalarining birgaligi, mavsumiy marosim kalendarlarining mavjudligi, o‘rim-terim va urug‘ marosimlari — bularning barchasi dehqonchilikning rituallashuv jarayonini tasdiqlaydi.
2. Unumdorlik kulti BMAK ikonografiyasining markazini tashkil etib, «Ilohiy ona», «Donli iloh» va hosildorlik ramzlari bu sivilizatsiyaning teologik sistemasini agrar kosmologiya atrofida tashkil etganligini ko‘rsatadi.
3. Gonurtepa «Oq xonasi»dagi haoma topilmalari va mavsumiy astronomik yo‘naltirilgan me’morchilik BMAK diniy tizimining zardushtiylikning prototipi



bo'lganligini kuchli arxeologik dalil sifatida tasdiqlamoqda.

4. Qiyosiy tahlil dehqonchilikning agrar sivilizatsiyalarda diniy ong shakllantirishdagi universal rolini tasdiqlaydi: Shumer, Hind vodiysi va Oks sivilizatsiyalari uchun bu jarayon parallel va o'xshash yo'ldan borgan.

Kelgusi tadqiqotlar uchun tavsiya sifatida BMAK yozuv belgilarini deshifrovka qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va hali to'liq nashr etilmagan sovet ekspeditsiyasi materiallarini ilmiy muomalaga kiritish zaruriyati ta'kidlanadi. Bu ishlar BMAK diniy tizimini yanada aniqroq tiklash imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Sarianidi, V. I. (1994). *Temples of Bronze Age Margiana: Traditions of Ritual Architecture*. *Antiquity*, 68(259), 388–397.
2. Sarianidi, V. I. (2002). *Margush: Ancient Oriental Kingdom in the Old Delta of Murghab River*. Ashgabat: Türkmen döwlethabarlary.
3. Kohl, P. L. (1984). *Central Asia: Palaeolithic Beginnings to the Iron Age*. Paris: Éditions Recherche sur les Civilisations.
4. Possehl, G. L. (2002). *The Indus Civilization: A Contemporary Perspective*. Walnut Creek: AltaMira Press.
5. Salvatori, S., & Tosi, M. (Eds.) (2008). *The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands*. Oxford: Archaeopress.
6. Lyonnet, B., & Dubova, N. A. (Eds.) (2021). *The World of the Oxus Civilization*. New York: Routledge.
7. Lamberg-Karlovsky, C. C. (2003). Civilization, State, or Tribes? The Oxus Civilization. *The Review of Archaeology*, 24(2), 1–10.
8. Askarov, A. (1977). *Drevnezemledel'cheskaya kul'tura epokhi bronzy yuga Uzbekistana*. Toshkent: Fan.
9. Hilzheimer, M. (1936). Iconographic index of BMAC seals. *Iranica Antiqua*, 1, 45–89.
10. Boyce, M. (1975). *A History of Zoroastrianism. Vol. 1: The Early Period*. Leiden: Brill.